

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

***№ 5/5 (5) – 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

|                                                                                                                                                                                               |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Abdullaev Ulugʻbek Saydanovich</i><br>OʻRTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR .....                                                                                                  | 10-14 |
| <i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i><br>BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QOʻRIQLASH, QOROVULLIKNI OʻTASH VA<br>XAVFSIZLIKNI TAʼMINLASH MASALALARI TAHLILI .....                                | 15-19 |
| <i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i><br>ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И<br>ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ .....                                                           | 20-25 |
| <i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i><br>OʻZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI<br>VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI<br>VA UNING TARIXIY AHAMIYATI ..... | 26-30 |
| <i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i><br>THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR .....                                                                  | 31-38 |
| <i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i><br>THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE<br>OF SOCIAL PROBLEMS IN IT .....                                                           | 39-42 |
| <i>Nazirov Baxtiyor, Moʻminov Nodirbek Botir oʻgʻli</i><br>IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING<br>IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI .....                                  | 43-48 |

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

|                                                                                                                                                       |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Исламтудинов Вадим</i><br>СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ<br>В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....                                               | 49-54 |
| <i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i><br>BENCHMARKING KICHIK INNOVATION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI<br>OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA..... | 55-65 |
| <i>Ульмас Ибрагимов</i><br>ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ<br>МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....                           | 66-75 |

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

|                                                                                                                         |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Salomova Hakima Yusupovna</i><br>MEʼYOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI .....                | 76-83 |
| <i>Djumanioyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i><br>YURIDIK TAʼLIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA..... | 84-90 |
| <i>Djoʻraev Anvar Muxamadiyevich</i><br>IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI .....                                  | 91-96 |

|                                                                                                                                                                                    |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Каримова Гулчехра Самадовна</i><br>ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ:<br>МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО-<br>ЭТИЧЕСКИХ..... | 97-101  |
| <i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i><br>ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД<br>НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....                                            | 102-105 |
| <i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i><br>YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....                                                                                | 106-110 |
| <i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i><br>O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....                                                                            | 111-116 |
| <i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i><br>TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....                                                                                   | 117-120 |
| <i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i><br>SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD<br>QADRIYATLARNING TA'SIRI .....                                             | 121-125 |
| <i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i><br>ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT<br>VA SAN'AT FALSAFASI .....                                                | 126-130 |
| <i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i><br>ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ<br>О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....                                              | 131-135 |
| <i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i><br>EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....                                                                                         | 136-139 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                                               |         |
| <i>Muqumova Dilafruz</i><br>IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI<br>MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....                                                 | 140-147 |
| <i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i><br>TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....                                                                                                     | 148-159 |
| <i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i><br>ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS<br>OF METAPHORICAL INNOVATIONS .....                                          | 160-163 |
| <i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i><br>FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY<br>TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....                                                             | 164-168 |
| <i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i><br>TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING<br>O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI .....                              | 169-172 |
| <i>Berdikulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i><br>BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI:<br>O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA .....                                | 173-177 |
| <i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i><br>FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....                                                                              | 178-182 |

|                                                                                                                                                             |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Яркулова Фотима Усмановна</i><br>ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....                                                                                       | 183-186 |
| <i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i><br>O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA<br>KELTIRUVCHI VOSITALAR.....                 | 187-190 |
| <i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i><br>THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART"<br>IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" ..... | 191-195 |
| <i>Yuldasheva Kamola</i><br>SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN<br>PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....                                                | 196-202 |
| <i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i><br>HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....                                                          | 203-206 |
| <i>Kamola Hatamova</i><br>HUIJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....                                                                         | 207-210 |

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

|                                                                                                                                                                 |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i><br>PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI<br>BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI ..... | 211-216 |
| <i>Mamatmurodov Farrux</i><br>METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES.<br>INTERNATIONAL EXPERIENCE .....                            | 217-222 |
| <i>Муталипова Лола Фархадовна</i><br>СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО<br>ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....                                   | 223-234 |
| <i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i><br>ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .                                                         | 235-241 |
| <i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i><br>RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....                                                    | 242-246 |

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

|                                                                                                                                                            |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i><br>RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI<br>MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI..... | 247-252 |
| <i>Namozova Dilorom Tursunovna</i><br>MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI<br>RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....                    | 253-261 |
| <i>Давыдова Руфина Артуровна</i><br>РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ<br>СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ .....                                 | 262-266 |
| <i>Gaziev Baxromjon Valievich</i><br>OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI .....                                                       | 267-273 |

|                                                                                                                                                                           |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i><br>DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:<br>O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....                         | 274-279 |
| <i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i><br>TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING<br>KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:<br>AMALIYOT VA TAJRIBA..... | 280-286 |
| <i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i><br>MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA<br>QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....                        | 287-290 |
| <i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i><br>IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI .....                                                           | 291-295 |
| <i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i><br>TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI .....                                                       | 296-301 |

**Received:** 2 June 2025  
**Accepted:** 15 June 2025  
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

## **THE EMERGENCE OF ZOROASTRIANISM AND THE PHILOSOPHY OF CULTURE AND ART IN IT**

**Shokirov Tohirjon Nurmamatovich**

Senior Lecturer, Department of Music Education and Culture,  
Fergana State University

**Makhmudov Shokhrux Utkirbek ugli**

Lecturer, Department of Music Education and Culture,  
Fergana State University

**Abstract.** This article is dedicated to studying the significance of the Avesta not only in the history of Central Asia but also in world culture and history. According to sources, the ideas expressed in the Avesta were so feared by the invaders of that time that they destroyed much of it, preserving only the information related to medicine and geography. The article also discusses efforts to restore the Avesta and presents views regarding the personality of Zoroaster. It explores the question of the core essence of the teachings and philosophy created by Zoroaster. The article also thoroughly highlights Zoroaster's views on the glorification of labor as presented in the Avesta.

**Keywords:** history, teaching / doctrine, idea, labor, culture, lifestyle, Zoroaster, folk oral tradition, work, music.

## **ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI**

**Shokirov Toxirjon Nurmamatovich**

Farg'ona davlat universiteti musiqa ta'limi  
va madaniyat kafedrası katta o'qituvchisi

**Maxmudov Shoxrux O'tkirbek o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti musiqa ta'limi  
va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Avestoning birgina O'rta Osiyo tarixida emas balki dunyo madaniyati va tarixida tutgan o'rni, xamda uning ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Manbalarda keltirilishicha Avestoda ta'kidlangan g'oyalardan o'sha davr istilochilari juda cho'chiganligi xamda tibbiyot va geografiyaga oid ma'lumotlarnigina olib qolib qolganini yo'q qilganligi haqidagi fikrlar bayon etiladi. Avestoni qayta tiklashga bo'lgan izlanishlar, Zardusht shaxsiga oid fikrlar keltirib o'tilgan. Maqolada Zardusht yaratgan ta'limot va falsafaning tub mohiyati nimadan iborat bo'lgan degan savolga javob axtarib ko'rilgan. Avestoda mehnat ulug'lanishi haqida Zardushtning fikrlari ham maqolada batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, ta'limot, g'oya, mehnat, madaniyat, turmush tarzi, Zardusht, xalq og'zaki ijodi, asar, musiqa.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N20>

**Kirish.** "Avesto" nafaqat O'rta Osiyo, balki butun dunyo madaniyati tarixida muhim ahamiyatga ega asardir. Undan so'z borganda, albatta, Zardusht va uning yaratgan ta'limoti esga olinadi. Garchi Zardushtdan avval ham Avesto ta'limoti mavjud bo'lgan bo'lsa-da, aynan uning sa'y-harakatlari bilan bu ta'limot kuchli va mukammal tizimga aylangan.

“Avesto” Zardusht nomi bilan bog‘lansa-da, bu asar faqatgina bir davrda yaratilmaganini alohida ta’kidlash lozim. “Avesto” bir necha asrlar davomida shakllanib, bugungi yaxlit holatga kelgan. Bu jarayon butun insoniyat madaniyati tarixida sinovlardan o‘tgan katta tajribaning natijasi bo‘lib, “Avesto” ana shu jarayonning dastlabki namunalaridan biridir. Sharqiy sivilizatsiyada bu kabi hodisalar ko‘p uchraydi — qadimgi Xitoydagi falsafiy asarlar yoki Bibliya ham xuddi shunday uzoq yillar davomida shakllangan. Bu holat “Avesto”ning asrlar davomida mashhur va qadrlangan asar bo‘lib kelganini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** “Avesto”ning keng tarqalganligi va mashhurligi Beruniyning “O‘tmish asrlardan qolgan yodgorliklar” (XI asr) hamda Tabariyning “Tarixi Tabariy” (X asr) kabi tarixiy manbalarda ham qayd etilgan. Beruniyning ma’lumotiga ko‘ra, “Avesto” qo‘lyozmasi o‘n ikki mingta mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) Eronga hujum qilgach, bu bebaho qo‘lyozmaning Eron podsholari xazinasida saqlangan eng qimmatli nusxalarini qo‘lga kiritgan. U asarning tibbiyot va astronomiyaga oid bo‘limlarini xattotlarga ko‘chirtirib, qolgan qismini katta gulxanda yoqib yuborgan. So‘ngra ko‘chirilgan qismlar yunon tiliga tarjima qilingan.

Sosoniylar sulolasining birinchi podshosi Ardasher Bobak “Avesto”ni tiklash vazifasini donishmand Xirbadan zimmasiga yuklaydi. Xirbadan bir guruh zardushtiy olimlar bilan birga asarni qayta yozib, uni tartibga keltiradi. Shopur II hukmronligi davrida esa Ozarbod Mexrosin “Avesto”ning tarqoq bo‘limlarini to‘plab, undagi ko‘plab nomlar va atamalarga izohlar beradi hamda “Zand Avesto” deb nomlangan asarni yaratadi. “Zand Avesto”ni “Avesto”ning sharhi sifatida qarash mumkin.

“Avesto”ning eng qadimgi qatlami — Gohlar (yoki g‘arbiy adabiyotlarda “gatlar”) — Zardushtning o‘zi tomonidan yozilgan deb hisoblanadi. Gohlar – diniy qasida va munojotlar bo‘lib, asarning qadimiy qatlamidir. Bu qatlamga asoslanib aytish mumkinki, zardushtiylik urug‘chilik jamiyati davrida, ya’ni jamiyatda hukmron tabaqa shakllana boshlagan bosqichda paydo bo‘lgan. Keyingi ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida esa bu ta’limot yanada rivoj topgan. Ayniqsa, milodiy III–VI asrlarda hukm surgan Sosoniylar davrida Zardusht ta’limoti yangicha shaklga ega bo‘lgan. Shunga qaramay, ta’limotning asl mohiyati saqlanib qolgan va takomillashgan.

Shuningdek, “Avesto”ning eng qadimgi qismi — Gohlar va Yashtlar — notiqlik san’atining dastlabki bosqichida vujudga kelganini ham alohida ta’kidlash lozim. Notiqlik san’ati ayniqsa g‘oyaviy qarama-qarshiliklar natijasida rivojlangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Zardusht o‘z davridagi kohinlar va qadimgi diniy e’tiqodlarga qarshi chiqqan, aynan shu qarama-qarshilik asosida o‘z ta’limotini yaratganini anglash mumkin. Zero, g‘oyaviy kurash — bu jamiyatdagi qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi to‘qnashuv natijasida yuzaga keladigan jarayondir.

Nazrulla Jo‘raev “Avesto mo‘jizasi” nomli kitobida “Avesto” dagi ijtimoiy adolatga yo‘g‘rilgan, g‘oyat insonparvar qarashlar nafaqat inson, balki butun borliq, tuproq, havo, suv, koinot, yulduzlar, hayvonlar, hasharotlar, parranda-yu darrandalar yaxlit olamining o‘zaro munosabatlari orqali inson ma’naviy-axloqiy me’yorlarini ilk bor ishlab chiqdi”[1].

**Natija va muhokama.** Zardusht shaxsi haqida turli xil qarashlar mavjud. Ayrim Yevropa olimlarining fikriga ko‘ra, u yashagan davrda ta’qib va bosimlarga duch kelgan. Shunga qaramay, Zardusht buyuk payg‘ambar va insoniyat najotkori sifatida tan olingan. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda yuzaga kelgan siyosiy vaziyatda uning faol roli aynan shu maqomda

baholanishiga asos bo'lgan. O'sha davrda kohinlar xalqqa tegishli yaylovlarni tortib olib, ommaviy ibodat qilish uchun mo'ljallangan joylarni buzib, o'z hukmron siyosatini yuritganlar. Eski diniy e'tiqodlar ham aynan kohinlar va zodagonlar manfaatiga xizmat qilgan. Shu murakkab va zo'ravon muhitda Zardusht oddiy xalq — o'troq chorvador qabilalar manfaatlarini himoya qilib, ularning vakili sifatida sahnaga chiqqan va payg'ambar sifatida e'tirof etilgan.

Sosoniylardan avvalgi V–VI asrlardan ham oldin hukm surgan Axmoniylar davriga oid matnlarda Zardushtning nomi bevosita tilga olinmasa-da, uning g'oyalari, xususan, Xurmuzdni ulug'lash g'oyasi asosiy o'rin egallaydi. Ko'pchilik tarixiy manbalarga ko'ra, Zardusht miloddan avvalgi XIII–VII asrlar oralig'ida yashagan deb hisoblanadi. Ehtimol, u ta'qib va bosimlarga uchragani sababli ataylab tarixdan chetlashtirilgan bo'lishi mumkin. Chunki yangicha fikr va g'oyalar ko'p hollarda qarshiliklarga uchrab, osonlik bilan tan olinmagan.

Zardusht yaratgan ta'limot va falsafa asosan ezgulik bilan yovuzlik, nur bilan zulmat kabi ruhiy kuchlar o'rtasidagi kurash g'oyasiga asoslangan edi. Zardushtiylik — jamiyatdagi muvozanatni buzuvchi nohaqliklarga qarshi yo'naltirilgan ta'limot bo'lib, dastlab diniy emas, balki ijtimoiy-siyosiy qarashlar majmui sifatida shakllangan. Zardusht ezgilik va yovuzlikni nafaqat ijtimoiy muammo sifatida ilgari surgan, balki bu tushunchalarni axloqiy jihatdan olamning yaratilishi va tuzilishi bilan bog'lagan. Vaqt o'tishi bilan bu qarashlar ilohiy tus ola boshlagan.

Zardusht ta'limoti faqat vaqt sinovidan o'tibgina qolmay, balki geografik jihatdan ham keng tarqaldi. Bu g'oyalar bizning hududimizdan boshlab Midiya, Fors, Armaniston, Kichik Osiyo va Hindistonning Panjob viloyatigacha yoyildi. Har qanday diniy oqim ma'lum bir hududda madaniy va ma'naviy yuksalishga sabab bo'lganidek, zardushtiylik ham bu hududlarda madaniyat markazlarini vujudga keltirgan.

Zardusht Hurmuzddan muhim qonun so'rar ekan: “Yer yuzida eng yaxshi joy qayerda?” deydi. Hurmuzdning Zardushtga bergan javobi shu bo'ldi: “Qayerda solih – Hurmuzdning muxlisi yerga yaxshi ishlov bersa, chorva tuyoqlarini ko'paytirsan, yaxshi joy o'sha yerdir”. Zotan, mehnatning bu turlari insonning farovon yashashi uchun kafolat. Ayni paytda Hurmuzdning bu javobidan agrotehnika qoidalarining ilk ildizlari to'g'risida xabardor bo'lamiz. Darvoqe, Zardusht Hurmuzddan qonun so'ragan edi, Hurmuzd qonunning ijrosi sifatida mehnatni berdi. Garchi qonun tushunchasi bugungi kunda o'z mazmuni va mohiyatini o'zgartirgan bo'lsa-da, “Avesto” qonuni va hozirgi qonun tushunchalari o'rtasida faoliyat jihatidan uyg'unlikni ko'ramiz.

Hamma davrda ham qonun inson manfaatlariga xizmat qilib, insoniyatni ezgulikka da'vat qilishini, yovuzlikning har qanday ko'rinishiga zarba berishini xalqlar umid qilganini e'tiborga olsak, Zardushtning savoliga Hurmuzdning bergan javobi ham o'z davrida muhim qonun ekaniga amin bo'lamiz.

Hurmuzdning quyidagi javobi bu fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi: “Kimki chap qo'li va o'ng qo'li bilan, o'ng qo'li va chap qo'li bilan yerga ishlov bersa, foyda keltiradi. Shunda yer solihga aytadi: “Ey inson! Sen menga chap qo'ling va o'ng qo'ling bilan, o'ng qo'ling va chap qo'ling bilan ishlov beryapsan. Darhaqiqat, men toliqmasdan tug'aman. Har turli yegulikni, mo'l hosilni yetishtiraman”. Kimki chap qo'li va o'ng qo'li bilan, o'ng qo'li va chap qo'li bilan yerga ishlov bermasa, unga yer aytadi: “Ey inson! Sen menga ishlov bermayapsan, sen shubhasiz tilanchilar orasida bo'lasan, begona eshiklar oldida mung'ayib turasan”. Uzoq vaqt ishlov berilmasdan, ekuvsiz qolib ketgan yer – turmushga chiqolmay, befarzand o'tgan qariqiz bilan

baravardir, degan hikmatli fikr “Avesto” zamonidan bizgacha yetib kelgan. Bu esa turli davrlar madaniyatning vorisiyligini va uzluksizligini ko’rsatadi.

Bizga ma’lumki, Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarning she’riyati va musiqa san’ati sinkretik (bir-biridan ajralmagan) holda vujudga kelgan. Bu jarayon eramizdan avvalgi I ming yillikka to’g’ri kelmoqda. Bu esa o’z navbatida qadimiy xalq og’zaki ijodidagi musiqiy-she’riy asarlarda bayon etilgan qahramonlik, marosim, mehnat va diniy mavzulardagi qo’shiqlar, she’rlar, dostonlar bilan xarakterlanadi. Jumladan, Siyovush, Rustam, Shiroq kabi doston va qo’shiqlarni fikrimizning yaqqol dalili sifatida bayon qilishimiz mumkin. Xalqimizning durdonasi bo’lgan “Avesto” kitobida ham ajdodlarimizning turmush tarzi, an’analari, ma’naviy dunyosi, ijtimoiy hayoti to’g’risida ko’plab ma’lumotlar bor. Filologiya fanlari doktori, professor Q.Sodiqovning “Sharq klassik filologiyasi” deb nomlangan ilk to’plamida marosimlarda ijro etiladigan qo’shiqlar haqida quyidagicha ma’lumotlar keltirilgan. “Movarounnahr va Xurosondagi islomgacha bo’lgan dinlar qatorida Kushon (I-IV asrlar) va Eftalitlar (V-VI asr o’rtalari) davlatlari davrida chetdan kirib kelgan budda va xristian dinlari musiqa bilan bevosita bog’liq bo’lsa-da, ammo vatani Xorazm hisoblangan. Muqaddas kitobning eng qadimiy qismlaridan “Yasna” atalmish 17-bobi “Gotlar”, “Gimnlar” deb nomlangan. Ular turli marosimlarda ijro etiladigan qo’shiqlarni o’z ichiga oladi.

Qo’shiqlarni ijro etish, duolarni o’qish, ibodat davomida ovozni idora etish va ijroning ta’sir kuchini oshirish yo’llari Zardusht misolida ko’rsatiladi. Masalan, Zaratushtra (Zardusht) bola tug’ilgan zahoti she’riy duolarni to’rt marta to’xtab-to’xtab, har gal ovozini balandroq ko’tarib o’qigan. Shunisi diqqatga sazovorki, “Avesto”ning o’zi ham, uning sharhlari (Zend) ham milodning VI asrigacha to’laligicha og’zaki saqlanib kelingan. Jumladan, “Avesto”ning “Gotlar”i musiqa jo’rligida ijro etilib, duolar o’z vaqtida lozim mutanosiblik (garmoniya) bilan va muayyan pardalarda (registr), ovozlarning zarur ohanglari va pardalarni to’la saqlagan holda kuylanishi talab qilingan”. Shu holda avlodlar o’z o’ziga og’zaki o’tib kelgan. Ularning muayyan ovoz ohanglariga ega ekanligi, ya’ni “qo’shiqonaligi” ko’p asrlar jarayonida og’zaki saqlanib qolishiga o’ziga xos kafolat bo’lib xizmat qildi va bu ohanglar asrlar osha yashab keldi”[2].

“Avesto”da ta’kidlanganidek, “daryolarning kemabop keng oqimlari yo’nalishida joylashgan” bu qadimgi voqea, ya’ni, Xorazm madaniyati haqidagi ilk qiyosiy ma’lumotlarni yunon olimlaridan Gerodot (tarix), Strabon (geografiya), Arrian va Kvint Kursiy Ruf (Aleksandr Makedonskiy yurishlariga oid) asarlarida uchratish mumkin. Lekin daslabki ishonarli dalillar aynan shu zaminda o’sib voyaga yetgan Muso al-Xorazmiy (783-850)ning “Tarix kitobi”da va “Musiqi risolasi”, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”i va Abu Abdulloh Muhammad Xorazmiy (vafoti – 997)ning “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kaliti”) nomli, butun O’rta va Yaqin Sharqda tan olingan qomusiy asarida bayon qilinganligi ma’lum. Jumladan, so’ngi manbalarda – o’zga ilmlar qatori, musiqa madaniyati va san’atining umumbashariy, nazariy va estetik masalalari, ayrim janr va shakllari ta’rifi hamda tahlili berilgan.

Turkiy va forsiy tillarda keng tarqalgan “nazmiy musiqiy” noma janri asoschisi, nozikta’b shoir Xorazmiy (XIII asr oxiri – XIV asr boshlari) qalamiga mansub “Muhabbatnoma”da so’z va kuy san’atining o’ziga xos tadrijiy bayoni namunalarini uchratish mumkin:

“Husayniy” pardasida uzra turub soz,

Mug’anniy bu g’azalni qildi og’oz.

Yoki:

“Iroq”iy mutribe hoham hush ilhon,

Kixondin g'azalrodar "Sifihon".

Muallif o'zining "Muhabbatnoma"sidagi atigi ikki baytida – jami uch maqom ("Husayniy", "Iroq", "Isfixon"), musiqa cholg'u sozini muayyan parda ("Husayniy")ga sozlanishi, birinchi baytni shu asnoda kuylayotgan hofiz (mug'anniy) ovozi, ya'ni boshlayotganligini va nihoyat, o'zga ("Iroq") pardadagi yoqimli cholg'u asar ehtiyoji tug'ilganligini katta mahorat bilan tasvirlaydi.

**Xulosa.** "Yeng mo'tabar, qadimiy qo'lyozmamiz... Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir[7]". Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov bu so'zlarni bejiz aytmaganlar. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. Unda markaziy Osiyo xalqlari bundan 3 ming yil oldingi davrlarda yoritib berilgan.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoev Sh. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari". 4-jild. –Toshkent:
2. O'zbekiston. 2020. – B. 344.
3. Mirziyoyev Sh. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir". – Toshkent: O'zbekiston. NMIU. 2-tom. 2018.
4. G'. Gulomov. "Madaniyat va jamiyat". T.: "Fan". 2019. – B.126.
5. A. Karimov. "Milliy qadriyatlarni tiklashda madaniy tadbirlarning ahamiyati". T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2021. – B.112.
6. I. Rasulov. "Ommaviy tadbirlar tashkilotchiligi". Samarqand: "Ilm ziyo" nashriyoti, 2018. – B.135.
7. Azimov D. Asadova S. O'rta asr sharq allomalarining musiqiy qarashlari. "Ekonomika i sotsium". 2021
8. I.A.Karimov. "Adolatli jamiyat sari", Toshkent: 1998
9. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2-tom. 2001.
10. <https://abiturtest.uz/mavzular/avesto-kitobining-organilishi-va-uning-tariximizda-tutgan-orni>.
11. Narzulla Jo'rayev "Avesto" mo'jizasi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2013.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).